

## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA FIZIKA FANINI O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

***Tursunova Muqaddasxon Abdurazaqovna***

*Namangan viloyati, Yangi Namangan tumani 57-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida  
Fizika fani o'qituvchisi. +998939422170, tursunovamuqaddas177@gmail.com*

***Alijonova Ro'zixon Mirzajon qizi***

*Namangan davlat universiteti Fizika yo'nalishi talabasi  
+998906344662, rozixonalijonova460@mail.com*

**Annotatsiya:** Umumta'lim maktablarida fizika fanini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari o'qituvchidan nafaqat yuqori malaka, balki didaktik va pedagogik yondashuvlarni ham talab qiladi. Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida fizika fanini o'qitishning asosiy xususiyatlari, muammolari va ularni yechish usullarini tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** tabiiy fanlar, abstrakt fikrlash, mantiqiy fikrlash, modellar, vizual tasvirlar, mikrotexnologiyalar, didaktik yondash.

## ОСОБЕННОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ ФИЗИКИ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ.

***Турсунова Мукаддасхан Абдуразаковна***

*учитель физики общеобразовательной средней школы №57  
Новонаманганского района, Города Намангана.,*

***Алижонов Розихан Мирзаджон кизи***

*студентка факультета физики Наманганского государственного  
университета.*

**Аннотация:** Специфика преподавания физики в общеобразовательной школе требует от учителя не только высокой квалификации, но и дидактического и педагогического подхода. В данной статье анализируются основные особенности, проблемы и методы решения физики в средней школе.

**Ключевые слова:** естествознание, абстрактное мышление, логическое мышление, модели, визуальные образы, микротехнология, дидактический подход.

## FEATURES OF TEACHING PHYSICS IN SECONDARY SCHOOLS.

***Tursunova Mukaddaskhan Abdurazakovna***



*physics teacher of comprehensive secondary school №57 of NovoNamangan district, Namangan city.,*

***Alijonova Rozikhan Mirzadzhan kizi,***  
*student of the physics faculty of Namangan state university.*

**Abstract:** The specifics of teaching physics in a comprehensive school require from the teacher not only high qualification, but also a didactic and pedagogical approach. This article analyzes the main features, problems and methods of solving physics in secondary school.

**Key words:** natural science, abstract thinking, logical thinking, models, visual images, microtechnology, didactic approach.

Fizika fani – tabiiy fanlar qatoriga kirib, dunyoqarashni shakllantirish, tabiat hodisalarini tushunishga yordam berish, ilmiy metodlarni o'rgatish, texnologik yangiliklarga oid bilimlarni yosh avlodga yetkazish kabi muhim vazifalarni bajaradi. Fizika fani o'zining tabiiy fanlar tizimidagi markaziy o'rnini egallaydi. U, bir tomondan, o'quvchilarga tabiatdagi jarayonlarni tushuntirishga yordam bersa, boshqa tomondan, dunyoqarashni kengaytirish va ilmiy tafakkurni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Fizika fanini o'qitishda o'quvchilarga ilmiy tasavvurlarni shakllantirish, ularning asosiy qonuniyatlar va prinsiplarni tushunishi muhim ahamiyatga ega. Bunda bilimlarni amaliyot bilan bog'lash, nazariyani tajriba bilan birlashtirish muhim hisoblanadi [1]. Fizika fanining o'qitilishi ko'pincha eksperimentlar va amaliy mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi. O'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'lishlari, balki bu bilimlarni amaliyotda qo'llashni o'rganishlari kerak. Misol uchun, oddiy fizik tajribalarni o'tkazish, ilmiy usul va metodlarni qo'llash o'quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantiradi.

Fizika fani o'quvchilardan o'ta murakkab va abstrakt fikrlashni talab qiladi. Masalan, atomlar, elektronlar, magnit maydonlar kabi mikroskopik jarayonlar o'quvchilarga amaliy tajriba orqali ko'rsatilmaydi. Shuning uchun, fizika o'qitish jarayonida tushuncha va modellarni aniq tasvirlash, abstrakt tushunchalarni osonlashtirish zarur. O'quvchilarga bunday tushunchalarni o'rganishda ko'rgazmali vositalardan foydalanish, interaktiv materiallar va virtual laboratoriyalarni qo'llash muhim. Fizika o'qitish jarayonida o'quvchilarni ilmiy tafakkur va mantiqiy fikrlashga o'rgatish muhim [2]. Buning uchun turli xil masalalar va vaziyatlarni hal qilishni o'rgatish, formulalar va qonuniyatlarni amalda qo'llash orqali o'quvchilarni fikrlashga undash lozim. Fizika fanini o'qitishda nafaqat fizika qonunlarini o'rgatish, balki zamonaviy texnologiyalarni tushuntirish va ularni o'quvchilarga tanishtirish ham muhimdir. O'quvchilarga kosmos, energiya manbalari, mikrotexnologiyalar va boshqa sohalar haqidagi zamonaviy ilmiy yangiliklarni yetkazish, ularning ilmiy

dunyoqarashini kengaytiradi. Fizika fanini o'qitishda muammoli o'qitish metodini qo'llash samarali bo'ladi. Bu metod o'quvchilarga muammoni hal qilish, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilarni haqiqiy hayotdagi masalalar bilan tanishtirib, ularni hal qilishga rag'batlantirish kerak. Fizika fanini o'qitishda ko'rgazmali vositalardan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Har xil diagrammalar, grafiklar, modellar, vizual tasvirlar yordamida o'quvchilarga murakkab tushunchalarni tushunishga yordam berish mumkin. Shuningdek, virtual laboratoriyalar va interaktiv o'quv dasturlari o'quvchilarga o'rganilayotgan mavzularni yanada tushunarli va qiziqarli qiladi. Fizika o'qituvchisi nafaqat yaxshi bilimga ega bo'lishi, balki yuqori pedagogik malakaga ham ega bo'lishi kerak [3]. O'qituvchi o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olib, o'quv jarayonini har bir o'quvchining ehtiyojlariga moslashtirishi lozim. Shuningdek, yangi pedagogik texnologiyalarni va zamonaviy didaktik yondashuvlarni qo'llash o'qituvchidan doimiy o'zini rivojlantirishni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda Umumta'lim maktablarida fizika fanini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari ilmiy tafakkur va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga, shuningdek, o'quvchilarga tabiatni tushunishga yordam berish, texnologik taraqqiyotga oid bilimlarni berishga yo'naltirilgan. Fizika o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar va metodlardan samarali foydalanish, o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va ularning fanlarga bo'lgan munosabatini ijobiy ravishda o'zgartiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. **T.Abduqodirov., S.Tursunov.** *Fizika fanini o'qitish metodikasi.* Toshkent. 2017.
2. **B.S.Aliev.** *Fizika fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar.* Tashken. 2014.
3. **3.A.Shamsiev.** *Fizika fanini o'qitishning yangi metodlari.* Toshkent. 2012.